

"TASDIQLANGAN"

*"UzGasTrade" AJ
Kuzatuv kengashi majlisining
2024-yil "18"-yanvardagi
2 -son majlis bayonnomasiga
6-Ilova*

**"UzGasTrade" AJ
ICHKI AUDIT XIZMATI HODIMLARINI
TAYINLASH BO'YICHA
NIZOM**

Toshkent-2024

MUNDARIJA

- 1. UMUMIY QOIDALAR**
- 2. TANLOV E‘LON QILISH JARAYONLARI**
- 3. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN ARIZA BERUVCHI
TOMONIDAN HUJJATLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI**
- 4. TANLOVNI O‘TKAZISH TARTIBI**
- 5. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. “UzGasTrade” aksiyadrlk jamiyatida ushbu ichki audit lavozimlarga tanlov o‘tkazish tartibi (keyinchalik matnda “Tartib”) O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi Nizom, “UzGasTrade” AJ (keyinchalik matnda “Jamiyat”) Ustavi, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha komissiya yig‘ilishining 31.12.2015-yildagi 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv Kodeksi (11.02.2016-yilda 02-02/1-187-son bilan ro‘yxatga olingan) va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarilgan.

2. Jamiyat ichki audit lavozimlariga nomzodlarni saylash (tayinlash) qoidaga ko‘ra xalqaro tajribaga ega mutaxassislar va boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov asosida amalga oshiriladi.

3. Tanlov asosidagi saralashdan ko‘zlangan maqsad Jamiyatning ichki audit lavozimlariga zamonaviy fikrlaydigan, yuqori malakali, zamonaviy talablarga javob beradigan rahbarlar bilan bir qatorda xorijiy mutaxassislarni ham jalb qilishdan iborat.

II. TANLOV E‘LON QILISH JARAYONLARI

4. Tanlovni e‘lon qilish vakant lavozim mavjud bo‘lgan taqdirda Jamiyat kuzatuv kengashi ruxsatiga asosan Jamiyat boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi. Tanlovni o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi tanlov e‘lon qilish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi.

5. Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa uni o‘tkazish sanasidan kamida ikki hafta oldin ommaviy axborot vositalarida va Jamiyatning internetdagi rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

6. E‘lon quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak:

- Jamiyatning nomi, uning joylashgan o‘rni va asosiy faoliyat yo‘nalishlari;
- bo‘sh ish o‘rin lavozimi nomi;
- tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, tanlovda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasi.

Bo‘sh ish o‘rin lavozimini egallash uchun nomzodga qo‘yiladigan talablarga quyidagilar kiradi: kasbiy faoliyat tajribasi, ish staji, shu jumladan tegishli sohada, ma‘lumoti, malakasi, ichki auditor sertifikat, ma‘lum ko‘nikmalar hamda shaxsiy fazilatlar mavjudligi. Bo‘sh ish o‘rin lavozimini egallash uchun nomzodga qo‘yiladigan talablar ro‘yxati har bir aniq holat uchun tasdiqlanadi.

- taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati va ularni rasmiylashtirishga bo‘lgan talablar;

- kerakli hujjatlar bilan tanlovga qatnashish uchun ariza topshirishning oxirgi

muddati;

- arizalarni qabul qilish rejimi;

- tanlov o'tkazish to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni arizachi olishi uchun aloqa ma'lumotlari.

7. Tanlovda ishtirok etishni xohlovchi shaxslar yozma so'rov asosida Jamiyat to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni olish huquqiga ega, tijorat siri yoki maxfiy ma'lumotlar bundan mustasno.

III. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN ARIZA BERUVCHI TOMONIDAN HUJJATLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

8. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza beruvchi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmagan holda Jamiyatga quyidagilarni taqdim etishi kerak:

- aloqa ma'lumotlari va taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxati bilan tanlovda ishtirok etish uchun ariza;

- shaxsni, ish tajribasini, oliy ma'lumotni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari va nomzodning fikriga ko'ra, uning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini tavsiflashi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar;

- 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha nomzod anketasi;

- tanlov taklifi;

- tavsifnoma.

Hujjatlar haqiqiyliги bo'yicha javobgarlik nomzod zimmasidadir.

9. Tanlov taklifi muhrlangan konvertida taqdim etiladi, u Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida ochiladi.

10. Tanlovda ishtirok etish arizasi quyidagi hollarda qabul qilinmaydi:

- ariza beruvchi tomonidan hujjatlar to'liq taqdim yetilmaganligi yoki ushbu Tartib talablari buzilgan holda rasmiylashtirilganda;

- ushbu Tartibda belgilangan muddatdan kechroq ariza topshirganda.

11. Ariza beruvchi quyidagi shaxslar bo'lishi mumkin emas:

- tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lmasa;

- tegishli sohada kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lmasa;

- ichki auditor sertifikatiga ega bo'lmasa.

12. Ariza beruvchi arizalarni topshirish muddati tugagunga qadar tanlovda ishtirok etish uchun arizani qaytarib olishga yoki tegishli yozma bildirishnoma yuborgan holda taqdim etilgan hujjatlarga tuzatishlar kiritishga haqli.

IV. TANLOVNI O'TKAZISH TARTIBI

13. Jamiyat boshqaruv qarori bilan ta'yinlangan mas'ul shaxs tanlovda ishtirok etish uchun Jamiyatga kelib tushgan ariza va hujjatlarni jamlaydi, ularning rasmiylashtirilganligini tekshiradi va Jamiyat kuzatuv kengashiga taqdim etadi.

14. Jamiyat boshqaruv organi ariza beruvchilardan olingan ma'lumotlarning saqlanishi va maxfiylikini ta'minlash choralarini ko'radi.

15. Tanlovda ishtirok etish uchun kamida uchta ariza kelib tushgan bo'lsa, tanlov o'tkaziladi. Aks holda, ijroiya organi ikkinchi tanlov e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli va taqdim etilgan tanlov taklifi ochilmaydi va ariza beruvchiga qaytariladi.

16. Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan taklif etilgan barcha takliflarni ishtirokchilar ularga qo'yiladigan talablarga rioya qilmagan taqdirda rad etish va tanlov asosida saralashni qaytadan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

17. Tanlov g'olibini aniqlash Jamiyat kuzatuv kengashining ko'pchilik ovoz berishi orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat ichki audit a'zolari lavozimiga nomzodlar o'z nomzodlarini ko'rib chiqishda kuzatuv majlisida qatnashishlari va ularning tanlov taklifini muhokama qilishda ishtirok etishlari mumkin.

Ichki audit lavozimiga g'olib aniqlangan taqdirda, uni saylash (tayinlash) to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

G'olibning nomzodini Jamiyat ichki audit lavozimiga saylash (tayinlash) Jamiyat kuzatuv kengashi majlisi natijalari bo'yicha qaror asosida amalga oshiriladi.

18. Ariza beruvchilarni baholash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- Jamiyat umumiy yig'ilishi ushbu nizomning 11-bandga muvofiq nomzodlarning tanlov talablariga muvofiqligini tekshiradi;

- 1-ilovaga muvofiq ball tizimi bilan baholanadi.

V. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

19. Tanlov ishtirokchilari tanlov natijalari to'g'risida Jamiyatning boshqaruv organi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida yozma ravishda xabardor qilinadi.

Besh kun ichida tanlov g'oliblari haqidagi ma'lumotlar Jamiyatning internet tarmog'idagi rasmiy korporativ veb-saytida e'lon qilinadi.

20. Tanlov g'olibi Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda u bilan mehnat shartnomasini tuzish uchun zarur hujjatlarni Jamiyatga taqdim etishi shart.

**“UzGasTrade» AJ ichki audit xizmatiga nomzodlarni saralash me'zonlarini
baholash bo'yicha o'rnatilgan ballar**

№	BAHOLONUVCHI ME'ZONLAR	MUVOFIQ ME'ZON UCHUN MAKSIMAL BALL	NOMZODDA MAVJUDLIGI
I. Ma'lumoti			
1.	Iqtisodiy sohasida oliy ma'lumotni tasdiqlovchi hujjatning mavjudligi		
	- oliy ma'lumot to'g'risida diplom	6	
	- magistr diplomi.	10	
Ilmiy darajasi mavjudligi			
2.	- fan doktori (DS)	4	
	- fan nomzodi (PhD).	3	
3.	Joriy yilda yoki o'tgan yilda olingan tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka oshirish sertifikatining mavjudligi.	4	
II. Ish tajribasi			
4	Mutaxassislik sifatida professional faoliyat bo'yicha ish tajribasi		
	3 yildan 5 yilgacha ish tajribasi	10	
	5 yildan ortiq.	15	
III. Bilim va ko'nikmalari			
5	ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha Jamiyatning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxonada mansabdor va mas'ul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlarni, ichki auditni o'tkazishga ko'maklashish uchun Jamiyatning tegishli mutaxassislarini jalb etish. Shuningdek, iqtisodiyot asoslari, mehnatni tashkil etish, buxgalteriya hisobi, mehnat va fuqarolik qonunchiligi, moliya institutlari faoliyatini bilish.	5	
	O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”, “Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida”gi qonunlarini bilishi.	13	
	Chet tillarini bilishi	5	
IV. Tavsifnomalar va kelishuvlar			
6	Oliy ta'lim yoki yuqori tashkilotlarning tavsiyanomalarining mavjudligi	10	
	Nomzodlik Vazirlar Mahkamasi yoki Prezident Administratsiyasi tomonidan tasdiqlanganligi	15	